Tinglovchilar bilimiga murojaat. Onlayn kurs tinglovchilarning mavjud bilimlarini yangi ma’lumotlar bilan bog‘lashga yordam beradi.

O‘quv materiallari taqdimotining xilma-xilligi. Onlayn kurs tinglovchilari e’tiborini jalb qilishi va ma’lumotni yaxshiroq eslab qolishlari uchun yangi bilimlarni taqdim etishning turli usullaridan (ma’ruzalar, hikoyalar, videofilmlar, infografika) foydalanishi kerak.

Qo‘llash. Tinglovchilar mashg‘ulot jarayonida yangi bilimlarni mustaqil ravishda qo‘llashlari kerak.

Integratsiya. Onlayn kurs bo‘yicha bilimlar tinglovchilarning faoliyatiga singib ketishi, amalda qo‘llanilishi kerak.

Gane ta’limotining 9 ta darajalari. Robert Gane bixeviorizm (insoniylik xulq-atvori) tamoyillariga asoslangan tuzilmani taklif qildi.

E’tiborini jalb qilish. Yorqin tasvir, yo‘lantiradigan savol va unutilmas statistik raqamlardan foydalanish mumkin.

Maqsadlar haqida gapirish. Onlayn kursning kirish qismida erishiladigan natijalarni tavsiflash lozim. Maqsadga erish ko‘rsatkichlarini aniqlash lozim.

Mavjud bilimiga murojaat qilish. Yangi ma’lumot berishdan oldin, tinglovchilar bilgan ma’lumotlar haqida so‘rash lozim va yangi ma’lumotlar bilan bog‘lovchi “ko‘prik”ni qurish lozim. Yangi ma’lumot tinglovchilarga ma’lum bo‘lgan ma’lumot bilan bog‘lansa, uni eslab qolish osonroq bo‘ladi.

Kontentlarni bo‘lish. Yangi kontentni oson bo‘lgan kichik bilimlar tizimi sifatida taqdim etish lozim.

Qo‘shimcha ma’lumot berish. Mashg‘ulot jarayonida olingan bilimlardan tashqari qanday maqolalar, kitoblar, videolarni tavsiya qilish haqida o‘ylab ko‘rish lozim.

Mashg‘ulotdagi faollik. Tinglovchilarni 1,5 soatlik onlayn ma’ruzada o‘tirishga majbur qilish mumkin. Ammo bunday mashg‘ulotlar salmoqli natija bermaydi.

Teskari aloqa bilan ta’minlash. Tinglovchilar tomonidan bajarilgan vazifalar yuzasidan teskari aloqa o‘rnatish lozim. Chat va boshqa aloqa kanallari orqali iloji boricha tezroq savollariga javob berish lozim.

Samaradorlikni baholash. Tinglovchilar bilimini shaffof va tushunarli mezonlarga mosligini tekshirish.

O‘quv materiallari tizimlashtirish. Tinglovchilarga ko‘plab ma’lumotlarni yodlab olishga yordam beradigan shablonlar, nazorat varaqalari, jadvallar va boshqa vositalarni taklif etish.

Blum taksonomiyasi. 1956 yilda Bendjamin Blum kognitiv o‘rganish darajasini tavsiflovchi tizim yaratdi. Blum o‘quv materiali bilan tanishishning 6 darajasini ta’kidlaydi:

Bilim. Tinglovchi o‘rgangan ma’lumotni eslab qoladi va takrorlaydi (masalan, muayyan sohaning atamalari va asosiy tushunchalarini eslab qoladi). Darajaga mos keladigan fe’llar: aniqlash, ta’riflash, tanlash, bilish, nomlash.

Tushunish. Tinglovchi faktlar va g‘oyalarni tushunishni namoyish etadi. Ularni tizimlashtirishi, solishtirishi mumkin. U matnni o‘z so‘zlari bilan aytib berishi, boshqa tinglovchiga tushuntirishi mumkin. Darajaga mos keladigan fe’llar: hikoya qilish, tushuntirish, izohlash, misol keltirish.

Qo‘llash. Tinglovchi bilimlarni amalda qo‘llashi, shu kabi va boshqa turdagi vazifalarni hal qilish uchun bilimlardan foydalanishi mumkin. Darajaga mos keladigan fe’llar: qo‘llash, o‘zgartirish, qurish.

Tahlil. Tinglovchi o‘quv materilialini mustaqil ravishda tahlil qilishi, mantiqiy xatolar yoki zaif dalillarni ko‘rishi mumkin. Darajaga mos keladigan fe’llar: solishtirish, tahlil qilish, xulosa chiqarish.

Baholash. Tinglovchi o‘quv materialining sifatini baholashi, uning qiymati haqida xulosa chiqarishi mumkin. Darajaga mos keladigan fe’llar: baholash, taqqoslash, tanqid qilish.

Yaratish. Tinglovchi mavjud o‘quv materiallari asosida yangi materiallarni yaratishi mumkin. Darajaga mos keladigan fe’llar: o‘zgartirish, qayta qurish, umumlashtirish.

Pedagogik dizayn ta’lim jarayonini yanada samarali va sifatli tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Bu, ayniqsa, tinglovchilar, professor-o‘qituvchilar va o‘quv kontenti o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki axborot va kommunikatsiya texnologiyalari orqali ta’minlanadigan onlayn ta’limda muhimdir. Kelajakda raqamli ta’lim resurslarini yaratishni rejalashtirayotgan professoro‘qituvchilar bu jarayonning moliyaviy va inson resurslari bilan bir qatorda juda ko‘p vaqt talab qilishini tushunishi lozim. Faqat pedagogik dizaynning har bir bosqichida batafsil, yaxshi rejalashtirilgan mehnat orqali sifatli raqamli resurs yaratiladi.

Raqamli muhitda maxsus norma va qoidalarga rioya qilish

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi axborotni, shu jumladan intellektual faoliyat natijalarini, nusxalash va tarqatish xarajatlari va tezligini, shuningdek markazlashtirilmagan axborot munosabatlarini minimallashtirdi. Shuningdek, nashriyot manbalaridan foydalanish sezilarli darajada pasaytirdi. Nusxa ko‘chirish taqiqlangan yoki buning uchun to‘lov belgilangan hollarda, bu

foydalanuvchilarning noroziligiga sabab bo‘ladi, chunki ctrl+S – ctrl+V kombinatsiyasini bosish osonroq. Lekin bu amaliyot mualliflik huquqining buzilishiga olib keladi. Raqamli ma’lumotlarning bunday katta oqimida ushbu qoidalarga qanday rioya qilish kerak?

Raqamli etika - bu onlayn muhitda o‘zini tutish qoidalari va tamoyillari to‘plamidir. Raqamli etika bizga Internetda va boshqa raqamli muhitda nima qilish mumkin va nima qilish mumkin emasligini tushunishga yordam beradi[4].

Raqamli etikaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Xavfsizlik: shaxsiy ma’lumotlaringizni himoya qilish va raqamli hayotingizni xavfsizligi ta’minlanishi lozim.

- Maxfiylik: boshqa odamlarning shaxsiy hayotiga oid ma’lumotlar maxfiyligiga rioya qilish va ularning ma’lumotlariga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish kerak.

- Hurmat: Internetdagi boshqa odamlarning huquqlari, fikrlari va chegaralarini hurmat qilish kerak.

- Ishonchlilik: siz faqat tasdiqlangan va to‘g‘ri ma’lumotlarni baham ko‘rishingiz kerak.

- Mualliflik huquqi: mualliflik huquqini hurmat qilish va buzmaslik, mualliflik huquqini buzuvchi kontentni yuklamaslik yoki tarqatmaslik kerak.

- Ko‘p madaniyatli: madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va boshqa madaniyatlar va fikrlarga ochiq bo‘lish kerak.

- Shaxsiy javobgarlik: internetda sizning harakatlaringiz va ularning oqibatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmangizga olishingiz kerak.

Raqamli etika – raqamli jamiyatda sog‘lom munosabatlarni rivojlantirish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Agar biz raqamli etika qoidalari va tamoyillariga rioya qilsak, barcha Internet foydalanuvchilari uchun xavfsiz va qulay muhit yaratishimiz mumkin[5].

Raqamli muhitda etikaga amal qilishning ba’zi usullariga to‘xtalib o‘tamiz:

- Internet xavfsizligi: raqamli etika qoidalari turli xil kiber tahdidlar, firibgarliklar, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash va viruslarni hisobga olgan holda Internetda xavfsizlikni saqlashga yordam beradi. Onlayn xavfsizlik qoidalariga rioya qilish shaxsiy ma’lumotlarimizni himoya qiladi va bizni kiber tahdidlardan xalos qiladi.

- Vijdonlilik va mas’uliyat: raqamli etika bizni internetda vijdonli va mas’uliyatli foydalanuvchi bo‘lishga o‘rgatadi. Masalan, mualliflik materiallaridan to‘g‘ri foydalanish, soxta yangiliklar va soxta axborot resurslarini tarqatmaslik.

- Tarmoqda sog‘lom munosabatlarni o‘rnatish: raqamli etika tarmoqdagi boshqa foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga yordam beradigan bir qator prinsiplardan iborat. Bu onlayn o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar, forumlar va ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zaro munosabatlar bo‘lishi mumkin. Ushbu qoidalar ishtirokchilarga o‘zlarini xavfsiz va qulay his qilish, bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va shaxsiy ma’lumotlarini saqlashga imkon beradi.

- So‘z erkinligini hurmat qilish: raqamli etika hurmat va so‘z erkinligini kafolatlaydi, shuningdek, Internetdagi turli fikrlar va ularning mualliflariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni buyuradi. So‘z erkinligini hurmat qilish raqamli etika qoidalaridan biri bo‘lib, u boshqa foydalanuvchilar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga yordam beradi va bepul va ochiq Internetni ta’minlaydi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va qo‘llanilishi bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan axloqiy muammolarni o‘rganuvchi yangi fan – axborot etikasi paydo bo‘ldi. Axborot etikasi kompyuter etikasi va axborot falsafasi bilan bog‘liq.

Kompyuter etikasi fanlararo tadqiqotlar sohasi bo‘lib, texnik, axloqiy, huquqiy, ijtimoiy, siyosiy va falsafiy masalalarni ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Unda tahlil qilingan muammolarni uch guruhga bo‘lish mumkin.

1. Kompyuter mutaxassislari va ishi kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga olgan oddiy foydalanuvchilar uchun axloq qoidalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq muammolar.

2. Axborot texnologiyalari sohasida mulk huquqi, mualliflik huquqi, shaxsiy hayot huquqi va so‘z erkinligini himoya qilish muammolari.

3. Kiber jinoyatlarining paydo bo‘lishi, ularning holatini aniqlash bilan bog‘liq muammolar guruhi.

Har bir o‘qituvchi ixtiyoriy yoki majburiy ravishda mualliflik huquqiga rioya qilish muammosiga duch keladi. Bu, bir tomondan, o‘z uslubiy, o‘quv, ilmiy materiallarni ruxsatsiz nusxa ko‘chirish va plagiatdan himoya qilish, ikkinchi tomondan, mualliflik huquqiga rioya qilishdir. Mualliflik huquqi shaxsiy-nomulkiy va mutlaq mualliflik huquqlariga ajraladi[1]. Shaxsiy nomulkiy huquqlarga quyidagilar kiradi:

- asar muallifi deb e’tirof etilish huquqi (mualliflik huquqi);
- asardan muallifning haqiqiy ismi-sharifi, taxallusini ko‘rsatgan holda yoxud ismi-sharifini ko‘rsatmasdan, ya’ni imzosiz foydalanish yoki foydalanishga ruxsat berish huquqi (mualliflik ismi-sharifiga bo‘lgan huquq);
- asarni har qanday shaklda oshkor qilish yoki oshkor qilishga ruxsat berish huquqi (oshkor qilishga bo‘lgan huquq), shu jumladan chaqirib olish huquqi;
- asarni, shu jumladan uning nomini muallifning sha’ni va qadrqimmatiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday tarzda buzib ko‘rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz etilishidan himoya qilish huquqi (muallif obro‘sini himoya qilish huquqi).

Mutlaq huquq ushbu asarni ko‘paytirish, tarqatish, ko‘rsatish, import qilish, nusxalash va sotish imkoniyatini beradi. E’tibor bering, agar mahsulot inson tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida yaratilgan bo‘lsa (masalan, o‘qituvchi masofaviy o‘qitish kursini ishlab chiqqan bo‘lsa), unda shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga, mutlaq huquqlar esa ish beruvchiga tegishli.

Mualliflik huquqi g‘oyalar, tushunchalar, tamoyillar, usullar, jarayonlar, tizimlar, usullar, texnik, tashkiliy yoki boshqa muammolarni hal qilish, kashfiyotlar, faktlar, dasturlash tillari, er osti boyliklari haqidagi geologik ma’lumotlarga taalluqli emas. Quyidagilar mualliflik huquqi ob’ekti emas: rasmiy hujjatlar, davlat va shahar ramzlari va belgilari, aniq mualliflarga ega bo‘lmagan xalq amaliy san’ati asarlari, voqea va faktlar haqidagi xabarlar[1].

Mualliflik huquqi asar yaratilganda yuzaga keladi va ro‘yxatdan o‘tish yoki boshqa rasmiyatchiliklarni talab qilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunida asardan muallifning ismi-sharifini va olingan manbaini albatta ko‘rsatgan holda hamda asardan normal foydalanilishiga zarar yetkazmaslik va muallifning qonuniy manfaatlariga putur yetkazmaslik sharti bilan oshkor qilingan asarlardan yoki bunday asarlarning parchalaridan ta’lim va o‘quv tusidagi nashrlarda ko‘zlangan maqsadga mos hajmda misollar tariqasida foydalanish ko‘rsatib o‘tilgan. Boshqa barcha holatlarda muallifning roziligi talab qilinadi.

Masalan, sayt sahifasiga biron bir manbaga havolani joylashtirish uchun muallifga xabar berish shart emas. Shuni ta’kidlash joizki, sarlarning ochiq manbalarda mavjudligi siz materialdan erkin nusxa ko‘chirishingiz va undan foydalanishingiz mumkin degani emas. Har qanday darslikni muallifining roziligisiz shaxsiy veb-saytiga joylashtirish, boshqa odamlarning veb-sahifalarini nusxalash, Internetda

olingan fotosuratlarni ular asosida yangi manbalar yaratish uchun o‘zgartirish, film yoki kompyuter dasturining soxta nusxasidan foydalangan holda, u huquqbuzarlik qiladi, ya’ni mualliflik huquqini buzadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonuni / https://lex.uz/docs/1022944

2. Sh.Adashboev. Oliy ta’lim tizimida raqamli ta’limning didaktik tamoyillari. UzACADEMIA. Ilmiy uslubiy jurnali, №9 20/01/2021, 14-19 b.

3. Петрова Е. цифровая дидактика: проектирование процесса обучения и его сопровождение // Современное педагогическое образование № 4, 2018. – с. 141-143

4. Чощанов М.А. Е-дидактика: новый взгляд на теорию обучения в эпоху цифровых технологий // Образовательные технологии и общество № 3, т. 16. - с. 684-695.

5. Моисеева М.В., Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Нежурина М.И. Интернет обучение: технологии педагогического дизайна / Под ред. Кандидата педагогических наук М.В. Моисеевой. — М.: Издательский дом «Камерон», 2004. — 216 с.

6. Гресова А. П. Развитие познавательных способностей старшеклассников средствами педагогического дизайна: дисс. … к. п. н. Саратов, 2016. 194 с.

7. Уваров А. Ю. Педагогический дизайн // Информатика. 2003. № 3. с. 1-32.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNING TURLARI VA ULARNING RAQAMLI TIZIMI

Umarova Zuxra Abduraxmanovna
CHDPU dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlari va ularga munosabat masalasi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: umumiy o‘rta ta’lim, pedagogik konfliktlar turlari, munosabat va muhokama, tahlil va tavsiya.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda 2026 yilga qadar sifatli ta’limga erishish vazifalari qo‘yilgan [1]. Mazkur vazifalar ijrosi jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlarini o‘rganish va tadqiq etish muhim o‘rin tutadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni makro, mezo va mikro darajaga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu jihatdan pedagogik konfliktlarning makro darajasi umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari va pedagogik jamoasi, ota-onalar va maktab jamoasi o‘rtasida kechishini ta’kidlab o‘tish lozim. Mazkur konfliktlar makro darajada bo‘lib, ular ba’zan maktab Pedagogik kengashida ham muhokama qilinadi. Shu jihatdan quyidagilar tavsiya etiladi:

a) o‘quvchilarning yoshlik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning xatti-harakatlarini tabiiy qabul qilish;

b) o‘quvchilar bilan oqilona munosabatda bo‘lish;

v) maktab ta’lim muhitini qiziqarli tashkil etish.

Bunday yondashuv o‘qituvchilar va maktab rahbariyati o‘rtasida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar turlarini yumshatadi. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko‘ra, bevosita o‘quvchilar bilan ishlash bu borada samarali hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy pedagogik konfliktlar turlari ham namoyon bo‘ladi. Chunki tarbiya – bu tadrijiy rivojlanib boradigan jarayondir. Shu jihatdan bugunegi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eng katta meros – bu yaxshi tarbiyadir” g‘oyasi asosida amalga oshirilmoqda [2]. Shu jihatdan pedagogik konfliktlar turlari yaxshi tarbiyani amalga oshirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi hodisa hisoblanadi.

Kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida quyidagi tarbiyaviy konfliktlar ko‘proq uchraydi:

a) tartib-intizom bo‘yicha o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi pedagogik konfliktlar (mikro darajada);

b) fazilatlarni o‘zlashtirish bo‘yicha sinf rahbarlari va o‘quvchilar o‘rtasidagi pedagogik konfliktlar (mezo darajada);

v) aqloqiy faoliyat bo‘yicha o‘qituvchilar va maktab rahbariyati o‘rtasidagi pedagogik konfliktlar (makro darajada).

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida makro darajada uchraydigan o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi pedagogik konfliktlarning tartib-intizom bo‘yicha turlari o‘tkinchi hodisalardan hisoblanadi. Chunki o‘quvchilar rivojlanish bosqichida bo‘lganligi uchun ba’zida beixtiyor ravishda tartib-intizomga rioya qilmaydilar. Buning natijasida o‘qituvchilarning e’tiroziga duch kelinadi. Bu hol dinamik xarakterda bo‘lib, deyarli har kuni uchraydi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra bu pedagogik konflikt turlarini yumshatish yo‘lidan borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun pedagogik jazo emas, aksincha, o‘ziga xos amaliy vositalardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, sho‘x va serharakat o‘quvchilar bilan indivitdual ishlash hamda ularning qiziqishini hisobga olish talab darajasidagi tartib-intizomni ta’minlashga asos bo‘ladi. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta’lim maktabi tartib-intizomiga nisbatan dogmatig munosabatda bo‘lmaslik lozim. Aksincha, demokratik yondashuvlar asosidagi tartib-intizomni joriy etish pedagogik konfliktologiya nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ijtimoiy va insoniy fazilatlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi asosiy vazifalardan biridir. Sinf rahbarlari o‘z sinfining o‘quvchilarini fazilatli voyaga yetkazish tartiblarini amalga oshiradi, o‘quvchilar esa yoshlik xususiyatlariga mos ravishda ba’zan fazilatlarni o‘zlashtirish jarayonida passiv ishtirok etadi. Natijada fazilatlar bo‘yicha mezo darajadagi sinf rahbarlari va o‘quvchilar o‘rtasida pedagogik konflikt yuzaga keladi. Ko‘p hollarda o‘quvchilarning yolg‘on gapirmaslik, haqgo‘ylik, mardlik, mehribonlik, jamoaparvarlik kabi fazilatlarni o‘zlashtirishini sinf rahbarlari qat’iyat bilan talab qilishadi. Ammo, fazilatlarni o‘zlashtirish jarayonida tabiiy metodlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Unga ko‘ra, ibrat ko‘rsatish, namuna bo‘lish kabi metodlar nafaqat pedagogik konfliktlarning oldini oladi, balki o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini tabiiy o‘zlashtirish jarayonini ham tarkib toptiradi. Shu ma’noda bu masalada sinf rahbarlarining demokratik metodlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘quvchilarning axloqiy faoliyati muhim masalalardan biridir. Unga ko‘ra, o‘quvchilar har bir xatti-harakatlarida axloq qoidalariga rioya qilishi va bu boradagi ko‘nikmalarini rivojlantirib borishi kerak. Shu jihatdan mazkur masalada ba’zan o‘zaro tushunmovchiliklar natijasida o‘qituvchilar va maktab rahbariyati o‘rtasida makro darajadagi pedagogik konfliktlar yuzaga keladi. Bunda maktab rahbariyati o‘qituvchilardan o‘quvchilarning talab darajasidagi axloqiy faoliyat yuritishini

talab qiladi va o‘z navbatida o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarining bunday talablarga rioya qilayotganligini ta’kidlashadi. Shu sababli bunday holatda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarda o‘qituvchilarning murosa metodiga amal qilishim va maktab rahbariyati esa o‘z vakolati doirasida harakat qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda maktab rahbariyatining qat’iy usullarga tayanishi pedagogik konfliktlarni kuchaytirishga xizmat qilishini eslatib o‘tish joiz.

E’tibor berilsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan tarbiyaviy xarakterdagi pedagogik konfliktlar o‘quvchilar, o‘qituvchilar va maktab rahbariyati ishtirokida tarkib topadi. Shu sababli mazkur masalada onglilik, tushunuvchanlik, insonparvarlik kabi tamoyillar asosida yondashish pedagogik konfliktlar nazariyasi va metodikasi nuqtai nazaridan to‘g‘ri hisoblanadi.

Virtual pedagogik konfliktlar ko‘p hollarda tashqi omillar va ta’sir kuchi asosida yuzaga keladi. Shu sababli mazkur pedagogik konfliktlar turlari alohida o‘rganishni taqoza etadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, virtual pedagogik konfliktlarning asosiy turlarini quyidagilar tashkil etadi:

a) o‘quvchilarning sababsiz dars mashg‘ulotlariga qatnashmasligi bo‘yicha o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi pedagogik konfliktlar (mikro darajada);

b) virtual o‘qitish masalalari bo‘yicha sinf rahbarlari va o‘qituvchilar zrtasidagi pedagogik konfliktlar (mezo darajada);

v) o‘quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasini virtual baholash bo‘yicha o‘qituvchilar va maktab rahbariyati o‘rtasidagi pedagogik konfliktlar (makro darajada).

Ijtimoiy muhiit va turli sabablarga ko‘ra keyingi yillarda mamlakatimizda virtual ta’limning turli shakllari amalga kiritildi. Buning natijasida o‘qitish tizimi, nazariyasi va metodikaksida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu jihatdan virtual o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning sababsiz darsga qatnashmasligi bo‘yicha pedagogik konfliktlarning yangi turi o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi anglashilmovchiliklar mikro darajada tarkib topib bormoqda. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, onlayn yoki masofaviy shaklda amalga oshiriladigan virtual ta’lim jarayoniga o‘quvchilarning nega faol qatnashmasligi masalasi o‘rganilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, bu masalada o‘quvchilar virtual ta’lim asosdagi bilim va ko‘nikmaklarni kutilgan darajada o‘zlashtiryaptimi, mazmunidagi muammoni ham o‘rganish taqoza etiladi. Bunday o‘rganish natijasida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish imkoniyaьtiga ega bo‘linadi. Bizning tahlilimizga ko‘ra, eng avvalo virtual ta’limning qiziqarli, jihozli va qisqa muddatli xususiyatlarga asosan tashkil etish o‘quvchilarning faolligiga asos bo‘ladi. Shu jihatdan virtual ta’limda matnni tushuntirish uchun oz muddat, mustaqil tlpshiriqlar uchun esa nisbatan ko‘proq vaqt ajratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘rinda eng asosiy masala virtual dars mashg‘ulotllarining qiziqarli bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida virtual ta’limni amalga oshirish bo‘yicha sinf rahbarlari va o‘qituvchilar o‘rtasida mezo darajada pedagogik konfliktlar yuzaga keladi. Bunda sinf rahbarlari virtual mashg‘ulotlarning o‘z vaqtida faollik bilan o‘tkazilishini naxzorat qilishadi va o‘qituvchilar esa aynan shunday faoliyat ko‘rsatayotganligini ta’kidlashadi. Shu sababli bu jarayonda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish uchun amalga oshirilayotgan virtual mashg‘ulotlarni yagonalashtirilgan raqamli texnologiya asosida nazorat qilib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablarimizda texnik sharoitlar mavjud. Shu jihatdan o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlarini makazlashgan va yagonalashtirilgan texnologiya asosida nazorat qilib borish bu bloadagi istalmagan pedagogik konfliktlarning oldini oladi.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida makro darajadagi o‘quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasini virtual baholash bo‘yicha o‘qituvchilar va maktab rahbariyati o‘rtasida pedagogik konfliktlar yuzaga kelmoqda. Unga ko‘ra, maktab rahbariyati maktab rahbariyati

o‘quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasini oqilona baholashni talab qiladi, o‘qituvchilar esa o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajasiga qarab virtual baholashni ma’qul ko‘rishadi. Buning natijasida o‘qituvchilar va maktab rahbariyati o‘rtasida muddatli xususiyatga ega bo‘lgan pedagogik konfliktlar yuzaga keladi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik va tarbiyalanganlik darajasini virtual baholashda ularning faolligi asos qilib olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, o‘quvchilar virtual tarzda berilgan topshiriqlarni to‘liq bajarsa, ular ta’limiy va tarbiyaviy faol ekanligi namoyon bo‘ladi hamda ushbu tamoyilga asosan yuqori darajada baholash mumkin bo‘ladi. Umuman bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida onlayn yoki masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladigan virtual ta’lim asoslari, talablari va uni baholash tamoyillari ishlab chiqilib, amalga kiritilishi dolzarb bo‘lib turibdi [3].

Pedagogik konfliktlarning turlarini raqamlashtirish ularning kelib chiqish sabablari, xususiyatlari va oqibatlarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bu borada oliy pedagogik ta’lim muassasalarida quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish lozim:

a) mutaxassislik fanlaridagi pedagogik konfliktlar mavzularini raqamli texnologiya asosida o‘qitish;

b) pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning kompyuterli texnologiyasini ommalashtirish;

v) bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik konfliktlar turlari bilan ishlash bo‘yicha raqamli texnologiyadan foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish.

Bunday yondashuv pedagogik konfliktlarni raqamli texnologiya imkoniyatlari asosida o‘rganish va bartaraf etish bo‘yicha keng imkoniyatlarni beradi.

Shunday qilib umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarning ta’limiy, tarbiyaviy va virtual turlari uchraydi. Mazkur pedagogik konfliktlar turlarini vaqtida aniqlab borish, tartibga solish va ularni bartaraf etish asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi . // www.ziyonet.uz.
2. Qarang: Jabbrova O.,Umarova Z., Babaxodjayeva L. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. -T.: “Malik Print Ko”. 2021. Jabbrova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi. –T.: “Zebo Print”. 2022 va hk.
3. Umarova Z. Boshlang‘ich sinflavrda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish.- Toshkent, 2021

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNING TURLARI VA ULARNI RAQAMLASHTIRISH TIZIMI

Umarova Zuxra Abduraxmanovna
CHDPU dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: umumiy o‘rta ta’lim, pedagogik konfliktlar, ziddiyatlarning turlari, yondashuvlar va muhokamalar, bilim va tajriba.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish Strategiyasi”da “aqlli ta’lim”ni amalga oshirish vazifasi qo‘yilgan[1]. Unga ko‘ra, “ta’lim tizimida virtual reallikka

asoslangan ilg‘or vizualizatsiya texnologiyalari hamda masafaviy o‘qitishning onlayn platformalari, ta’lim berishning yangi usul va vositalari” joriy etilishi kerak. Bu o‘rinda vizualizatsiya, ya’ni texnik jihozlar imkoniyatlariga tayangan texnologiyalar asosida (ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilarning virtual munosabatlariga binoan) ta’lim berish hamda masofaviy o‘qitishning onlayn platformalarini kengaytirish vazifasi qo‘yilmoqda. Ta’lim jarayonida bo‘ladigan bunday innovasion o‘zgarishlar o‘qituvchilar va maktab jamoasining istalmagan holatlarga tayyor turishi taqoza etiladi. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarning muayyan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan turlari tarkib topshi idrok etiladi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, virtual tarzda amalga oshiriladigan ta’lim jarayonida pedagogik konfliktlarning yangi ko‘rinishlari va shakllarining tarkib topishi ehtimoli mavjud. “Aqlli ta’lim” shaklida ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilarning ko‘p hollarda virtual tarzdagi munosabatga kirishishi pedagogik konfliktlar turlarining tabiati o‘zgarishiga olib keladi. Shu sababli bunday jarayonni tabiiy qabul qilib, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik konfliktlar bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini tarkib toptirish dolzarb hisoblanadi. Bu o‘rinda e’tiboringizni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning eng asosiy turlari tahliliga tortamiz.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlar tipologiyasida uning turlarini aniqlab olish muhim o‘rin tutadi. Bizning tahlillarimiz va o‘rganishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarning quyidagi ta’limiy turlari muntazamlik tamoyili asosida ko‘p uchraydi:

1) bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida uchraydigan pedagogik konfliktlar (mikro daraja);

2) o‘quvchilar davomati bo‘yicha sinf rahbarlari va o‘qituvchilar o‘rtasida uchraydigan pedagogik konfliktlar (mezo daraja);

3) o‘quvchilarning faoliyati bo‘yicha o‘qituvchilar va maktab rahbariyati o‘rtasida uchraydigan pedagogik konfliktlar (makro daraja).

Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar mikro darajaga mansub bo‘lib, ularga muntazamlik va davomiylik xos xususiyat hisoblanadi. Bunda o‘qituvchilar o‘quvchilarning bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishini ilk rejaga qo‘yadi, o‘quvchilar esa o‘zlashtirish jarayonida ba’zan murakkabliklarga duch keladi. Buning natijasida o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida vaqtinchalik o‘zaro tushunmovchiliklar hamda kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarga ko‘p hollarda o‘quvchilarning o‘quv materiallari mazmunini tushunmasligi asosiy konfliktogen hisoblanadi. Shu sababli bunday vaziyatda o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarini aniqlab olish, ularning o‘zlashtirishishini yengillashtiruvchi metodlarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biroq, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qituvchilarning ko‘p hollarda o‘zlarini haq deb bilishlari o‘zlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Aksincha, o‘zlashtirish jarayonida murakkablikga duch kelgan o‘quvchilar bilan individual ishlash taqoza etiladi. Chunki o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan pedagogik konflikt turi salbiy xususiyatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bunday xususiyatlarning eng asosiysi o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini susaytirishidir. Bunda o‘qituvchi bilan istalmagan kelishmovchilikga bormaslik uchun o‘quvchilar munosabatga kirishmay qo‘yadi va natijada o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayoni kutilgan darajada bo‘lmaydi. O‘qituvchilar ko‘p hollarda o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning fikrlari bilan ustuvor darajada hisoblashishi, o‘zlarini neytral tutishi va o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘naltirishga amal qilishi kerak. Shu sababli bugungi kunda umumiy o‘rta

ta’lim maktablarida o‘qitishning avtoritar usulidan voz kechish va demokratik ususiga amal qilishga o‘rganish muhim pedagogik muammolardan hisoblanadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar uchun aynan avtoritar o‘qitish usuliga amal qiladigan o‘qituvchilar konflitogen vazifasini bajaradi. Negaki, o‘quvchi bilimlarni o‘zoashtirish jarayonida murakkablikga duch kelsa yoki bunda o‘qituvchi bilan o‘zaro anglashmovchilikga borsa aynan o‘qitishning avtoritar usuli sabab bo‘ladi. Innovasion jamiyat sharoitida o‘qitishning demokratik yoki pragmatik usullariga tayanish o‘zlashtirish jarayonini kuchaytiradi va istalmagan pedagogik konfliktlarning tarkib topishini oldini oladi. Buning natijasida muayyan sinfda o‘zlashtirish darajasini talablar asosida yuksaltirib borish imkoniyatlariga ega bo‘linadi.

Xorijlik pedagog olimlardan Yu.Zaprudskiy o‘zlashtirish jarayonining ob’yektiv va sub’yektiv jihatlariga e’tibor berishni tavsiya etadi [2]. Bunda ob’yektiv jarayoni o‘zlashtirish bo‘yicha mavjud shart-sharoitlarni va sub’yektiv jarayoni esa o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning o‘zaro munosabatini anglatadi. Shu jihatdan o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarni aniqlash hamda bartaraf etishda ularning yuzaga kelishidagi ob’yektiv va sub’yektiv omillarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlar turlarida o‘quvchilarning davomati bo‘yicha sinf rahbari va o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar mezo darajada bo‘lib, ko‘p hollarda ularga o‘quvchilar hamda ota-onalar konfliktogen hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalaga amaliy yondashish taqoza etiladi. Chunki ota-onalar ko‘p hollarda o‘quvchilarning davomatini kutilgan darajada nazoratga olmaydi yoki o‘z farzandlarining tarafdori bo‘ladilar. Natijuada o‘quvchilarbing davomati sustlashadi yoki ba’zi sinflarda esa davomatning pastligi o‘quvchilarning bilim va tarbiya olishi jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada sinf rahbarlari o‘quvchilar bilan istalmagan konfliktga kirishadi. Buning uchun o‘ziga xos yondashuv asosida yuzaga kelgan pedagogic konfliktlarni bartaraf etish kerak bo‘ladi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, bunda sinf rahbarlarining bevisita oila a’zolari bilan ishlashi kutilgan samarani beradi. Chunki oilalarda muayyan kishining (ota-ona, aka yoki opaning) ta’siri yuqori bo‘ladi va mana shunday ta’sirga ega kishi bilan ishlash o‘quvchilarning davomatini kutilgan darajada ta’minlash imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Bunda asosiy murakkablik shundaki, noto‘liq oilalar bilan ishlash nisbatan murakkab kechadi va bunga noto‘liq oilada voyaga yetayotgan o‘quvchilarning erkalik xususiyatiga ega bo‘lishi sabab bo‘ladi. Shu sababli sinf rahbarlari oilalar bilan ishlashda individual metodlar bilan ishlashi taqazo etiladi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning istalmagan darajada va sababsiz dars qoldirishlari natijasida yuzaga keladigan davomat masalasi o‘qituvchilar va sinf rahbarlari o‘rtasida mezo darajadagi pedagogik konfliktlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, keyinga paytlarda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar davomati bo‘yicha deyarli har kuni pedagogik konfliktlarning namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shu sababli o‘quvchilarning davomatini ijobiy hal qilish uchun bizningcha, quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) darslarni zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda qiziqarli o‘tish;

b) darslarni tashkil etishda o‘quvchilarning fikr-mulohazalari va tashubbuslarini hisobga olish;

v) o‘qituvchilarning o‘qitish metodikasi va kasbiy malakasini yangilab borish [3].

Bunday yondashuv davomat masalasida kelib chiqadigan pedagogik konfliktlarning turlarini oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Chunki davomatning yuqoriligi yoki pastligi avvalo o‘qituvchilarning o‘qitish metodikasiga bog‘liq.

Ta’limiy konfliktlarda yana biri o‘quvchilar faoliyati bo‘yicha o‘qituvchilar va maktab rahbariyati o‘rtasida kechadigan turidir, u pedagogik konfliktlarning mikro darajasiga kiradi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar yoshlik xususiyatlariga binoan dars jarayonida yoki maktabdagi faoliyatida sho‘xlik, erkinlik va shovqin-suron ko‘tarish kabilarga rioya qilishadi.Natijada maktab rahbariyati bu borada o‘qituvchilarga e’tiroz bildiradi va uning natijasida muayyan konfliktlar paydo bo‘ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlar turlarini raqamli tizim asosida o‘rganish dolzarb bzlib turibdi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish taqozxa etiladi:

a) kompyuterli dastur asosida pedagogik konfliktlarning turlarini tizimlashttirish;

b) mazkur dastur asosida pedagogik konfliktlar turlarining yashovchanligini kuzatib borish;

v) ushbu dastur vositasida pedagogik konfliktlar turlarini tahlil qilib borish.

Mazkur jarayon oliy pedagogik ta’lim muassasalarida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday qilib umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlar turlarini ilmiy, nazariy va metodik jihatdan tadqiq etib borish sifatli ta’limga erishishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish Strategiyasi”. // www.ziyonet.uz.

2. Zorkin D.P. Osnovы konfliktologiii. –Rostov-na-Donu.: «Feniks».1998.

3. Umarova Z. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. – Toshkent, 2021

СОРТИРОВКА ХЛОПКА-СЫРЦА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ХЛОПЧАТОБУМАЖНОЙ ТКАНИ

Юсубалиев А.
доктор технических наук,профессор
Чипчикский Государственнқй Педагогический Университет
(Чирчик, Узбекистан) ashir-el@mail.ru

Аннотация: В статье приведен краткий анализ современного состояния технологии первичной обработки хлопка-сырца. Обоснована необходимость новых прогрессивных электрических технологий для повышения качества производства хлопчатобумажной ткани военного назначения

Ключевые слова: кластер, хлопок-сырец, переработка, электрическая технология, волокно,пряжа, ткань.

Yusubaliev A., Doctor of Technical Sciences, Professor
Chipchik State Pedagogical University
(Chirchik, Uzbekistan) ashir-el@mail.ru

SORTING OF RAW COTTON TO IMPROVE THE QUALITY OF COTTON FABRIC

Annotation: The article provides a brief analysis of the current state of the technology for the primary processing of raw cotton. The necessity of new progressive electrical technologies to improve the quality of the production of military cotton fabric is substantiated.

Key words: cluster, raw cotton, processing, electrical technology, fiber, yarn, fabric.

В настоящее время большинство предприятий, производящее одежду для личного состава Минобороны (например ООО «Гайрат-Чодак», ООО «Шофиркон Экваториальный Текс» и др.) используют ткани, производимые в Китайской Народной Республике из-за того, что механическая прочность тканей, производимых в Узбекистане, ниже требуемого уровня.

Гигроскопические показатели тканей из смешанных хлопчатобумажных ниток, содер-жащих в составе (50±5) % химические волокна создают дискомфорт военнослужащим в условиях активной физической деятельности, особенно в условиях высокотемпературного и продолжительного летнего климата Узбекистана и всей Центральной Азии. Для снижения доли искусственных волокон необходимо повысить механическую прочность хлопкового волокна.

Использование высококачесвенного волокна позволит получить пряжу с высокими технологическими свойствами, способствующими повышению конкурентной способности производимой продукции текстильной и швейной промышленности на внешнем рынке [Герасимова Н., 1988].

Реализация этой задачи требует улучшения эффективности технологических процессов первичной переработки выращенного хлопка-сырца с использованнием новых методов воз-действия на сырьё при сниженних энергетических и материальных затратах.

Особенностью выращиваемых сортов хлопчатника является образование бутонов, цветков, коробочек и накопление урожая на растениях хлопчатника как бы последовательно по «конусам» в разные периоды жизнедеятельности, которые тесно связаны со строением ветвей куста растения и изменениями характера распределения питательных веществ по ним. Поэтому из-за влияния генетических, матрикальных и экологических факторов в онтогенезе, даже в пределах одной коробочки, образуются разнокачественные семена и произрастающие на их поверхности волокна.

Поэтому исходный хлопок-сырец всегда состоит из смеси разнокачественных летучек, после переработки которых получают продукции со среднестатистическими качественными показателями от свойств исходных волокон. В силу этого производимые перерабатывающими предприятиями кластеров хлопковое волокно обладают усредненными качественными показателями.

Современные технологические линии предусматривают переработку хлопка-сырца в непрерывном потоке по схеме «сушка-очистка-джинирование (волокноотделение)-волокно-очистка-прессование» и по существу не реагируют на качественный состав исходного материала. Выполнение технологичеких процессов осуществляется за счет многократного механического взаимодействия хлопка с рабочими органами в виде пильных, кольковых, ножевых барабанов, колосниковыми и другими конструктивными элементами машин, обычно приводящие к повреждениям волокон и семян. Причем, степень повреждения последних зависит от их физиологической зрелости, которая, как отмечалось выше, не учитывается существующими машинами при выполнении технологических процессов.

Существенным недостатком существующей технологии получения хлопкового волокна из исходного хлопка-сырца средневолокнистых сортов является применение пильных джинов для отделения волокон от семян. Процесс осуществляется за счет отрывающего действия механических сил зубьев пилы, что приводит к поврежденности волокон до 15-20 % в виде сдиров, выхватов, надрезов, в результате чего появляются короткие волокна и многочисленные жгутики и

пороки, снижающие качество текстильного сырья и получаемой пряжи в целом[М.А.Хаджинова,1963]. Аналогичные повреждения, но в меньшей степени, получают волокна также в процессах очистки хлопка-сырца от различных сорных примесей и волокноочистки из-за механического ударного воздействия различных рабочих органов [Т.А.Очилов,2002].

Например, если волокно хлопка-сырца до джинирования имело механичекую поврежденность 6,0%, то после этого процесса она увеличивается до 18,4% [М.А.Хаджинова,1963]. Степень поврежденности волокон зависит от качества (зрелости) перерабатываемого хлопка-сырца. При механической повреждленности 7-14% у хлопка1-сорта, у волокон хлопка 3-сорта этот показатель доходит до 12-30%[Т.А.Очилов,2002]. Установлено существенное влияние пилы джина на увеличение доли коротких волокон при укорочении их средней длины, что приводит к снижению эффективности прядения и качества пряжи. Сравнение работы валичного и пилного джинов показало, что волокно после пильного джина имело на 19% больше повреждений и на 25% жгутиков, способствовавшие снижению прочности пряжи[C, D. Delhom,2017].

Для исключения или существенного снижения влияния вышеуказанных недостатков могут быть использованы особенности электрического поля, заключающиеся в его способности заряжать, поляризовать и оказывать силовое воздействие на диэлектрические материалы, каковыми являются хлопок-сырец, волокно, семена и сорные примеси, без непосредственного контакта с его источниками. Об этом свидетельствуют результаты проведенных предварительных исследований по очистке, сортированию и обеззараживанию хлопка-сырца и его компонентов[Юсубалиев А.,2019; Yusubaliev A.,2014].

Было установлено, что в электрическом устройстве разделение ис-ходного хлопка-сырца происходит по массе летучек и семян, имеющих тесную связь с физиологической зрелостью семян и разрывной нагрузкой волокон. Поэтому в пределах каждой фракции электрического устройства выделяются летучки с выравненными свойствами волокон и семян. В результате качество хлопка-сырца и волокна повышается на промышленный сорт. Таким образом, в результате применения электрической технологии создаётся возможность получения хлопкового волокна гарантированного качества с повышенными механическими свойствами[Юсубалиев А.,2016].

Чтобы улучшить качество продукции, полученной из хлопка-сырца, сначала исходный хлопок разделяется на различные фракции одинакового качества, а затем обрабатывается в соответствии с их качеством, или исходный хлопок сортируется по качеству обработанного волокна и семян. И в первом, и во втором случаях необходимо классифицировать обраба-тываемый материал по качеству. Известно, что семена и физиологическая зрелость их волокон тесно связаны друг с другом. Поэтому первый способ предпочтительнее, поскольку в этом случае разделение летучек на фрак-ции происходит одновременно в зависимости от степени зрелости семян и волокон, что значительно повышает точность сортировки [Юсубалиев А.,2018].

Следующим способом повышения качества продукции является использование в про-цессе волокноотделения валичного джина вместо пильного. Для этого сила сцепления хлоп-ка с поверхностью валика и, как следствие, сила трения хлопка на поверхности валика должна быть увеличена внешним электрическим полем. Это позволит отделить хлопковое волокно от семян в несколько раз меньшим повреждением по сравнению с пильним джином и удлинить среднюю длину волокон.

Выводы

1. Для улучшения качества и конкурентоспособности производимой ткани требованиям, предъявляемым ношения одежды в условиях интенсивных физических нагрузок личного состава военных подразделений, необходимо предварительно выделить из общей массы хлопка-сырца фрак-цию волокна с лучшими показателями по зрелости и механической прочности.

2. Сложившаяся ситуация требует нового направления исследований по комплексному применению электрических полей во всех основных технологических процессах производства хлопкового волокна и хлопчатобумажной ткани с пониженным содержанием искусственных волокон в составе пряжи.

Литература

Герасимова Н., Максудов И., Хафизов И. Качество пряжи после сортировки // Хлопок.-1988. №6. С.39.

М.А.Хаджинова. Влияние повреждения хлопковых волокон на качество текстильного сырья. -Ташкент, 1963.

Т.А.Очилов. Кинематика изменения свойств волокон в процессах хранения и первичной переработки хлопка-сырца. -Ташкент,2002.

C, D. Delhom, C.B. Armijo,S. Ed Hughs. High Quality Yarns Produced via High-Speed Roller Ginning of Upland Cotton // The Journal of Cotton Science, 2017, vol.21, p.81–93.

Юсубалиев А. Электросортировка в жлопководстве.- Новосибирск, 2019, Академиздат. - 176 с.

Yusubaliev A.,Yusupalieva U. Improvement of quality of a cotton fibre Sorting cotton segments in the electric device// European science review, May-Jun. -2014, № 5-6. - pp. 46-48.

Юсубалиев А., Пиримов О.Ж., Курбонбоев Т.О. Возможности повышения качества хлопка-сырца рассортировкой летучек в электрическом поле // Проблемы современной науки и образования.-2016, №33(75).-С.20-22.

Юсубалиев А., Пиримов О.Ж., КурбонбоевТ.О., Хусанов А.М. Электросортировка хлопка-сырца повышает эффективность хлопководческих кластеров // Проблемы современ-ной науки и образования.- 2018, №8 (125). – С.

O’QUV JARAYONINI ARALASH TA’LIMNING FLIPPED CLASSROOM VA STATION ROTATION MODELI ORQALI TASHKIL ETISH METODIKASI

Sh.Sh.Allamova
D.A.Abduhayotova
1-Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O’zbekiston
2- Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi, Chirchiq, O’zbekiston
e-mail: shohistabonu55@gmail.com

Zamonaviy jamiyatda ro‘y berayotgan ta’limni raqamlashtirishning uzluksiz jarayoni turli xil elektron ta’lim resurslarining keskin ortishi bilan kechadi. Oliy ta’lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning tobora ommalashib borayotgani elektron ta’lim resurslarining sifatini, ta’lim jarayonida foydalanishga yaroqliligi nuqtai nazaridan ekspert baholashni taqozo etmoqda. Bunday holda, “ekspert baholash” atamasini uslubiy mazmunning to‘liqligi, didaktik mazmunning sifati, uni tuzish usullari va fan sohasini taqdim etish, o‘quv intizomi, qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar, elektron ta’lim resurslarining dizayni va ergonomikasi va dasturiy ta’minotning ishlab chiqarilishi baholash bo‘yicha mutaxassislar guruhining kompleks tahliliy faoliyati sifatida tavsiflash mumkin.

Aralash ta’lim – ta’lim jarayonini tashkil etish texnologiyasi bo‘lib, u AKT va boshqa zamonaviy o‘quv qo‘llanmalari taqdim etgan yangi didaktik imkoniyatlarga asoslangan an’anaviy auditoriya tizimi texnologiyalari va masofaviy ta’lim texnologiyalarini uyg‘unlashtirish konsepsiyasiga asoslanadi.

Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini amalga oshirishda qo‘llaniladigan aralash ta’limning samarali modellaridan biri – Station rotation (stansiya aylanishi) modeli bo‘lib, biz o‘z tadqiqot ishimizda amaliy mashg‘ulot o‘quv jarayonlarini ushbu model asosida loyihaladik. Ushbu modelni tashkil etishda auditoriyada kompyuter yoki planshetlar, o‘qituvchi tomonidan LMS dan foydalanish va auditoriyani guruhlarga bo‘la olish qobiliyati talab qiladi (1-rasm).



1-rasm. “Station rotation” modeli

Ushbu aralash ta’lim modelida talabalar o‘quv faoliyati turlariga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi, har bir guruh auditoriyaning (bekatning) o‘ziga xos qismida ishlaydi:

- o‘qituvchi bilan ishlash guruhi;
- onlayn ish guruhi;
- loyihai ish guruhi.

Ushbu modelni o‘quv jarayoniga tadbiq etishda o‘qituvchiga kichik guruhlar bilan ishlash qobiliyati, tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish qobiliyati, tyutor bo‘lishga tayyorlik, auditoriyaning o‘quv madaniyatini shakllantirish qobiliyati talab etiladi.

Auditoriyaga kelgan talabalar aralash ta’lim modellaridan biri station rotation (joylarni almashtirish) modeli asosida ishlaydilar. Guruhlarning tarkibi o‘sha kuni o‘qituvchi muayyan talaba oldiga qanday maqsadlar qo‘yganiga qarab o‘zgaradi. Guruhlarga taqsimlashda - differensial adaptatsiyani qo‘llash, talabalarning o‘rganilayotgan mavzuga bo‘lgan qiziqishi yoki o‘quv materialini o‘zlashtirish tezligi asos bo‘lishi mumkin. Guruhning optimal tarkibi taxminan 6-9 kishidan iborat.

Ushbu texnologiyada auditoriyai uchta zonaga (joylarga) bo‘linadi. Ushbu zonalarni tashkil qilish uchun stollar bir joyda talabalar bir-biriga yaqin bo‘lishi va iloji bo‘lsa, boshqa joylarda o‘qiyotgan talabalarga xalaqit bermasligi uchun o‘zgartiriladi. Auditoriya davomida har bir guruh uchta joydan ham o‘tadi. Auditoriyaning bir qismida talabalar o‘qituvchi bilan ishlaydi (frontal stantsiya), so‘ngra loyiha (loyiha stantsiyasi) ustida ishlash uchun o‘zgartirilgan stollarda o‘tirishadi, so‘ngra devorga qarshi stollarda o‘rnatilgan kompyuterlarga o‘tishadi. Shunday qilib, stansiya aylanish modelida o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun 1:1 1 talaba uchun bitta kompyuterdan (1:1 texnologiya) foydalanadi. Auditoriya simli internetga ulangan stol kompyuterlaridan foydalanadi.

Frontal guruhda ishlaydigan bolalar vazifani oladilar. Frontal guruh talabalari mashqlar ustida ishlayotganda, o‘qituvchi loyiha guruhiga murojaat qilishi mumkin. Qoida tariqasida, loyiha guruhida talabalar hozirda dasturda o‘rganilayotgan materialga tegishli topshiriq ustida ishlaydi.

Biz quyida, aralash ta’lim asosida “Informatikaning nazariy asoslari” fanidan “Shaxsiy kompyuter qurilmalari bilan ishlash” mavzusi bo‘yicha aralash ta’limning Flipped classroom va Station rotation modellarini o‘zaro transformatsiyasini muvofiqlashtirishga asoslangan o‘quv muhitidan foydalanish metodikasini loyihalaymiz (3-rasm).



3-rasm. Amaliy mashg‘ulotlarni Flipped classroom va Station rotation modellarini o‘zaro transformatsiyasini muvofiqlashtirishga asoslangan o‘quv muhitidan foydalanish metodikasini loyihalash algoritmi

Oliy ta’lim muassalarida o‘quv jarayonini “Flipped classroom” va “Station rotation” modellarini o‘zaro transformatsiyasini muvofiqlashtirish asosida tashkil etish, talabalarning yuzma-yuz auditoriyada faolligini nazarda tutadi: ular bir-birlaridan so‘raydilar, maslahatlashadilar, bahslashadilar, shuning uchun yuzma-yuz samarali muloqotni ta’minlash uchun interfaol vazifa ustida o‘ylash zarur.

Shunday qilib, oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida o‘quv jarayonida ushbu ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mavjud pedagogik tizim funksiyalarini tubdan o‘zgartirishni, shu jumladan o‘qituvchi rolini bir shakldan ikkinchisiga o‘tkazishni anglatadi, innovatsion va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, aralash va masofaviy ta’lim shakllarini keng qo‘llash, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faolligini oshirish va uzluksiz ta’limga e’tiborni individual psixofiziologik xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘rganish yo‘llarini topish imkonini beradi.

Ilmiy izlanishlar natijasiga ko‘ra, o‘quv jarayonini aralash ta’lim modellari orqali tashkil etish, talaba erkinlik va mas’uliyat maydoniga ega bo‘lish, talabalarning bilim darajasini avtomatlashtirilgan nazorat qilish tizimini joriy etish orqali ular akademik faoliyati traektoriyalarini qurish, o‘qituvchilar esa talabalarni auditoriya ishiga yo‘naltirish, qayta aloqali munosabatni tashkil etish va tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar:

1. Алламова Ш.Ш. Повышение эффективности образовательного процесса в условиях смешанного обучения вуза // European Journal of Education and Applied Psychology. 2023.№1. - URL: https://ppublishing.org/archive /publication/631-povishenie-effektivnosti-obrazovatelnogo-prots

TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA MASOFAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Atamuradova Dilshoda Ravshanqulovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unversiteti o‘qituvchisi

O‘quv jarayonini tashkil etishda kredit-modulli o‘qitish tizimidan foydalanish muayyan o‘quv fanidan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarning mantiqiy tugallangan qismlari sifatida alohida modullarga bo‘lingan o‘quv materialini talabalar tomonidan izchil va puxta o‘rganishni nazarda tutadi. Har bir modul uchun ta’lim miqdordagi kreditlar ajratiladi, unda o‘quv ishlarining hajmi o‘lchanadi. Har xil turdagi darslarga tayyorgarlik ko‘rayotgan talabalar zamonaviy o‘quv, ilmiy va uslubiy ta’limotlar oqimida tezda harakat qilishlari, bu ta’limotlarni tahlil qilishlari, ularning mantiqiy tuzilishini tanqidiy tushunishlari, asosiy jihatlarini ajratib ko‘rsatishlari va shu bilan birga ularni mustaqil ravishda egallashlari hamda o‘zlarining o‘zlashtirish qobiliyatlarini namoyish etishlari kerak bo‘ladi.

Keyingi paytlarda bilimlarni o‘zlashtirishda ta’limning eng yangi ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish barcha turdagi ta’lim tashkilotlarida, xususan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amalga oshirish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bunda asosiy e’tibor masofaviy ta’limdan foydalanishga qaratilgan. Masofaviy ta’lim talabalarning to‘laqonli mustaqil ishlashlariga va bu jarayonga o‘qituvchining maqsadli rahbarlik qilishiga asoslanadi.

Maqolaning maqsadi talabaning o‘quv fanlarni va boshqa ilmiy-uslubiy ta’limotlarni o‘zlashtirishda hamda mustaqil ishni samarali tashkil etishda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat. Masofaviy ta’limni amalga oshirishda oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan talabalarning mustaqil ishlarini doimiy samarali nazorat qilish kerak bo‘ladi.

Mustaqil ish har bir talaba uchun majburiy bo‘lib, o‘quv rejasi bilan belgilanadi va mutaxassislar tayyorlash jarayonining muhim qismidir. O‘quv faoliyati tarkibida unga umumiy o‘quv vaqtining uchdan bir qismidan uchdan ikki qismigacha ajratiladi. Mustaqil ishlarni tashkil etish talabalarni tayyorlashning butun davri davomida tizimli xususiyatga ega. Mustaqil kognitiv faoliyatni optimallashtirish uchun talabalarning yakka tartibda ish rejalari tuziladi, ular nafaqat talabalarga mustaqil ravishda olingan bilimlarning kerakli miqdori to‘g‘risida ta’limot berish vositasi bo‘libgina qolmay, balki o‘qish vaqtini va ularning yakka tartibda harakatlarini to‘g‘ri taqsimlashga imkon beradi. Ko‘zlangan natijaga erishish uchun ijtimoiy tajriba talaba tomonidan tashqi yordamsiz o‘zlashtiriladi va bilim, ko‘nikmaga erishiladi. Bu esa talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishi va takomillashtirishiga hissa qo‘shadi.

Mustaqil ishning muhim jihati shundan iboratki, u nafaqat ta’lim muammolarini, balki o‘quvchining o‘zini-o‘zi rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish muammolarini ham hal qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi axborotga oddiy iste’molchi sifatida emas, balki unga ijodiy talabgor hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchining vazifasi nafaqat ma’lumotni tayyor shaklda uzatish, balki talabani mustaqil bilish faoliyati bilan shug‘ullanishga undash, bilimlarni o‘zlashtirishda erkin ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Masofaviy shakllar axborot-ta’lim resurslari va xizmatlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va shartlari, masofaviy ta’lim tizimidagi multimedia mustaqil ta’lim uchun zarur bo‘lgan o‘quv ta’limotlarini gipermatn shaklida taqdim etish, tovush, grafik, animatsiyaning vizual xususiyatlaridan foydalanish imkonini beradi.

Bilimni yaxshiroq o‘zlashtirishga hissa qo‘shadigan videota’limotlar talabalarga qulaylik tug‘diradi. Talabalar mustaqil ishining yuqoridagi barcha shakllari masofaviy shaklda, masalan, modulli ob’ektga

yo‘naltirilgan dinamik o‘quv muhiti HEMIS platformasi asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu oliy ta’lim tashkiloti ta’lim tizimiga masofaviy ta’lim elementlarini joriy etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, o‘quv materialining hajmini mavzular yoki haftalar bo‘yicha mazmunli bloklarga bo‘lish orqali elektron shaklda amalga oshirish oson bo‘lgan yakka tartibdagi o‘quv dasturini tuzishdan boshlash kerak. Bunday o‘quv rejalarining mavjudligi talabalarga ishlarni mustaqil ravishda bajarish, o‘z o‘quv faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tartibga solish, o‘zini o‘zi nazorat qilish va uning natijalarini va o‘z harakatlarini baholash qobiliyatini aniqlash imkonini beradi. Majmuadagi hamma resurs talabanga o‘z-o‘zini boshqarishni amalga oshirish imkonini beradi. Talaba o‘zining ta’lim faoliyatini mustaqil boshqarib, o‘zini-o‘zi boshqarish tizimi vazifasini bajaradi. O‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmi shunday harakat qiladiki, talaba boshqaruv sub’ekti sifatida o‘zini ob’ekt deb hisoblaydi. U o‘zining tarbiyaviy harakatlarini tartibga soladi, faoliyatni tashkil qiladi, o‘z harakatlariga o‘zaro ta’sirli murojaat qiladi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, an’anaviy va masofaviy ta’limda talabalar bajaradigan mustaqil ishning turidan qat’iy nazar, asosiy ma’sulyat o‘qituvchiga yuklatiladi, ya’ni mustaqil ta’limdagi barcha ta’limiy jarayonlar o‘qituvchi bilvosita nazoratida amalga oshiriladi. O‘qituvchi talabalarni mustaqil ishlarni bajarish maqsadi, mehnat intensivligi, ishlarni bajarish usullari, muddatlari, nazorat shakllari, bajarilgan mustaqil ish sifatini baholash mezonlari bilan tanishtirishi kerak. Dastlab o‘qituvchi talabalarning tayyorgarlik darajasini, ulardagi ko‘nikma va qobiliyatni, oliy ta’lim tashkilotida o‘qish jarayonida mustaqil ishlash istagi va ehtiyojlarini kuzatishi (bunday ishlarni masofaviy tashkil etishda, shuningdek, rivojlanish darajasini tekshirishi) kerak.

Talabaning kompyuter ko‘nikmasini, internetdan o‘quv maqsadlarida foydalanish qobiliyatini e’tiborga olib, o‘qituvchi masofaviy ta’limda nazariy materialni o‘rganish qulay bo‘lgan navigatsiya tizimiga ega bo‘lgan elektron kitob ko‘rinishida taqdim etilishi mumkin.

Adabiyotlar:

[1]. Suxanov P. V., Morozova N. V. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini rivojlantirishning kontseptual asoslari. //Fan va maktab. – 2013 yil – 1-son.

[2] http://ziyonet.uz -Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portali

TA’LIM JARAYONIDA MASOFAVIY TA’LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH

Abduraimov Jur’atbek G’ofurovich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Informatika va AT” kafedrasi katta o’qituvchi
Aziza Rayimova Rizoqul qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Matematika va informatika” fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o`qituvchi va o`quvchi bir biri bilan masofa yoki vaqt orqaliajratilgan sababli, informatsion texnologiyalardan fodalanilgan ta'lim turi. Ta'lim tizimida masofadan o`qitish uslubi shakllari keng qo`llanilmoqda. Masofadan o`qitish uslubi bu sirtqi o`qishning yangi shaklidir. Masofadan o`qitish bu mustaqil o`qishdir. Mustaqil o`qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofadan o`qitishning yana bir afzalligi shundaki, unda o`quvchi o`ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o`qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan.

Kalit so’zlar: masofaviy ta’lim,masofaviy o’qitish platformalari, masofaviy o’qitish afzalliklari

Kirish: Hozirgi kunda yurtimizda ta’lim jarayonlarini yanada yaxshilash,qulay qilish maqsadida masofaviy ta’lim va masofaviy ta’lim platformalari yaratilmoqda. Ko`pchilik Internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, informatsiya qidirish, elektron pochtadan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Internetdan foydalanishning yangi bosqichi boshlandi, ya'ni Internet turli sohalarga tadbiq qilindi. Internet texnologiyalar: masofadan o`qitish, elektron kutubxonalar, elektron magazinlar va boshqalar. Masofaviy ta’lim o’z o’rnida o’qituvchilar va talabalarga ko’pgina qulayliklar olib kelmoqda. Platformalarning afzalliklari juda ko’p. Bunda talabalar o’qish bilan birgalikda vaqtdan unumli foydalangan holda ishlashi ham mumkin. Qulay vaqtda platforma orqali dars videoroliklarini yuklab olish, mavzularni pdf formatidan foydalanish va berilgan topshiriqlarni platformaga joylab borishlari mumkin. Onlayn ta’limda siz dam olish kunlarida, ishdan qaytganingizda hatto yarim kechada o‘qishingiz mumkin.Shuningdek bunda mablag’ ham tejaladi. Har qanday dastur uchun masofaviy ta’lim darajasi o‘quv markazlaridagi oddiy to‘lovdan ko‘ra ancha arzonroq bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan maqbul variantlarni qidirayotgan o‘quvchilar uchun onlayn ta’lim eng to‘g’ri yo‘l.

Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Butun jahon oliy ta’lim va ilmiy tashkilot muassasalari tizimida masofaviy ta’limda fanlarning metodik ta’minotini takomillashtirish, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, mashg‘ulotlarda multimedia, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko‘lamda va ommaviy foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ayni paytda foydalanish uchun qulay va mashhur platformalar ko’pgina.Masalan,

1.Moodle platformasi. Ushbu platform qulayligi va soda tuzilganligi bilan boshqa platformalardan ajralib turadi va Moodle interfeys va funksiyalarni sozlash uchun keng imkoniyatlarga ega.

2. ATutor ATutor GitHub. Bu platform ko‘p jihatdan Moodle ga o‘xshaydi, lekin ATutor tayyor modullari kamroq, ammo ichki dizaynerga ega.Bu platforma ham o’ziga xos xususiyatlarga ega.

3.ILIAS. Ushbu masofaviy ta’lim tizimi SCORM 1.2 va SCORM 2004 kabi masofaviy ta’lim tizimlarining standartlariga mos keladigan birinchi ochiq tizim deb atash mumkin. Ushbu moslashuvchan universal tizim mualliflik kurslarini muvaffaqiyatli sotish uchun zarur bo‘lgan barcha asosiy talablarga javob beradi.

4.Diskurs. Diskurs bepul mahalliy platforma. Pullik xizmatlar mavjud (qayta ishlash, funksiyalarni qo‘shish, ularni qo‘llab-quvvatlash).

Platformalarning turli xil ko’rinishlari mavjud.Yuqorida bepul platformalarni keltirib o’tdik. Bepul platformalardan foydalanish qulay va ko’pgina holatlarda ular soda tuziladi.Lekin pullik ta’lim platformlari ham mavjud.Bepul platformalarga qaraganda ularda imkoniyat ko’proq va foydalanish ham qulayroq. Pullik platformalardan bir nechta misol keltiradigan bo’lsak;

1.Eliademy. O‘qituvchilar va murabbiylar uchun ushbu tizim butunlay bepul, agar ular premium hisobdan foydalanishni xohlasalar, foydalanuvchilardan kam haq olinadi.

2.Forma LMS. Umumiy bilim darajasini batafsil statistika va hisobotlarga tahlil qilishdan- Forma LMS juda ko‘p miqdordagi mavjud funksiyalarga ega. Xizmat shuningdek, turli xil sertifikatlar, vakolatli etakchilik yordami, shuningdek, virtual sinfni boshqarish uchun turli xil vositalar, jumladan, turli kalendarlar va hodisalar menejerlari mavjud.

3.Dokeos. Agar siz tayyor kurs elementlari bilan masofaviy ta’lim tizimini qidirsangiz, unda siz uchun beshta foydalanuvchi guruhiga bepul taqdim etilgan Ushbu tizim ko‘plab tayyor andozalar va elektron ta’lim kurslarini taklif etadi va, albatta, sizning kursingizni yaratish uchun sarflangan vaqtni maksimal darajada qisqartirishingiz mumkin bo‘lgan mualliflik vositalari mavjud.

4.ISpring Learn. ISpring Learn onlayn ta’lim platformasi xususiy biznes murabbiylari va rivojlangan filiallar tarmog‘i bo‘lgan yirik kompaniyalar tomonidan qo‘llaniladi: Alfa Capital, Lamoda, PwC, RTRS, Unilever. Bu Internet xizmati, shuning uchun dasturni yuklab olish, serverga o‘rnatish, sozlash kerak emas. Ishni boshlash uchun saytda ro‘yxatdan o‘tish, o‘quv materiallarini yuklab olish va xodimlarni tayinlash kifoya.

Masofaviy ta’lim shakllaridan foydalanish talabaning shaxsiyatini rivojlantirishga yordam beradi, u o‘zi-o‘zida rivojlanishni ko‘radi, o‘qituvchi ham buni ko‘radi. Talabaning rivojlanishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Masofaviy ta’limda tahsil olayotgan talabalarning bilim darajasi albatta DTS talablariga javob beradigan bo’lishi, an’anaviy ta’limda qatnab o’qiyotgan talabalardan kam bo‘lmasligi kerak. Shuning uchun masofaviy ta’limni zamonaviy innovatsion texnologiyalardan, dasturiy ta’lim vositalardan, mobil ilovalardan, turli platformalardan unumli foydalangan holda tashkil qilish, shu bilan birga nafaqat ta’lim balki tarbiyalab borish har bir o‘qituvchining oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Masofaviy ta’lim barcha uchun qulay va samarali deb hisoblayman.Uning foydasi va samarasi qachonki foydalanuvchi muntazam o’z ustida ishlab ,mustaqil harakat qilganda bilinadi. Bilim olish istagida bo’lgan talabalar, o’quvchilar uchun internet tarmog’ining barcha jabhalarida ko’pgina imkoniyatlar yaratilmoqda .Bundan bir necha yillar oldin masofaviy ta’lim orqali o’qitish juda kam edi .Lekin hozirgi kunda juda ham ko’p va bu zamon rivojlanayotganligi va taraqqiy etayotganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1..Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Xolmatov P.Q., Shirinov M.K. Umumiy pedagogika. Toshkent. Navro’z. 2016

2. .Оришев, Ж. Б. (2019). Олий таълим муассасаларида инновацион таълим технологияларидан фойдаланишнинг имкониятлари

3. 5.Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортиқова, О. Ш. (2019). Узлуксиз таълимда" дарсларда экологик танаффус" педагогик технологиясига асосланган электрон қўлланмаларни жорий этиш

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI MASOFAVIY O’QITISH

Abduraimov Jur’atbek G’ofurovich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Informatika va AT” kafedrasi o’qituvchisi
Hilola Abduhalilova Muhiddin qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Matematika va informatika” fakulteti talabasi

Annotatsiya

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun zamonaviy masofaviy o’qitish texnologiyalaridan foydalanish jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olish davrida qo’llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, muammaolari va masofadan o’qitishda yuzaga keladigan dolzarb muammolar ko’rib

chiqilgan. Bunday o’quv platformalaridan foydalanishda har bir imkoniyati cheklangan o’quvchi o’zi uchun qulay bo’lgan o’rganish traektoriyasini , o’rganish darajasi va usulini tanlashi mumkin.

Kalit so’zlar: masofaviy o’qitish, qulayliklari, kamchiliklari, masofaviy o’qitishni tashkil etish shartlari

Kirish: Barcha mamlakatlarda va jamiyatning har qanday qatlamlarida imkoniyati cheklangan ya’ni nogironligi bo’lgan bolalar mavjud, ular jamiyatimizning ma’lum bir qismini tashkil qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar boshqa sog’lom bolalar bilan bir qatorda ta'lim olishlari va rivojlanishi kerak. “Nogironlik bolani yoshiga mos keladigan ta'lim va pedagogik jarayonlarga qo'shish imkoniyatini keskin cheklaydi va shuning uchun doimiy ravishda qo'shimcha yordam yoki nazorat qilish zarurati tug'iladi” [1].

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun masofaviy ta'limni tashkil etish bolaga o'qish joyidan qat'iy nazar, samarali va sifatli ta'lim berish, jamiyatda moslashish uchun zarur bo’lgan tengdoshlari bilan muloqot qilish imkoniyatlarini beradi. Zamonaviy texnalogiyalar muhitida o'qiyotganda, bola bir vaqtning o'zida ko'nikmalarga ega bo'ladi, bu esa kelajakda unga jamiyatda o’zining munosib o’rnini topishda ko’maklashadi. Shu bilan birgalikda masofaviy ta’lim izlanuvchilarga ko’plab qulayliklar yaratadi. Vaqt bilan muamolar bartaraf etiladi, ya’ni o’quvchi istalgan vaqtda platformadan foydalana olish imkoniyatiga ega bo’ladi xoh kunduz, xoh kecha bo’lsin. Hattoki qisqa tanafus vaqtlaridan ham unumli foydalanish mumkin bo’ladi.

Masofaviy ta'limda axborot texnologiyalari quyidagi vositalar rolini o'ynaydi:

- talabalarga masofadan turib ta'lim olishda o’quv materiallar kontenti bilan ta’minlash;
- talabalarni o'qituvchi bilan, shuningdek, o'zaro aloqa vositalari bilan ta'minlash;
- o'quv jarayonini boshqarish va nazorat qilish;
- samarali mashq simulyatorlar yaratish imkoniyatini ta'minlash.

Masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta'limni qurishning asosiy

elementi o’quv kontentidan cheklovlarsiz foydalanishni imkoniyatini ta'minlashdir. Aynan shu imkoniyat tufayli izohlangan texnologiyalar to'plami masofaviy ta'lim texnologiyalari nomini oldi. [2]

Masofaviy ta’limning asosini masofaviy darslar tashkil qilib, ular ko’magida asosiy mashg’ulotlar olib boriladi. Bunday darslar an’anaviy darslarga biroz o’xshab ketadi. Ular orasidagi asosiy farq masofaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilarda zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi vositalarning mavjudligidir.

To'plangan tajriba shuni ko'rsatadiki, mavjud amaliyotda masofaviy ta'limni tashkil etishning nafaqat afzalliklari, balki bir qator kamchiliklar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasida yuzma-yuz muloqotning yo'qligi va shuning uchun tarbiyaviy ta'sir;
- masofaviy ta'lim uchun zarur bo'lgan talabalar o'rtasida motivatsiya va o'z-o'zini intizomni rivojlantirish uchun o'qituvchi tomonidan boshqaruvning etishmasligi;
- tinglovchilarning masofaviy ta'lim texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha dastlabki ko'nikmalari (ko'pincha) shakllanmagan;
- hamma fanlarda ham tinglovchilarni masofaviy kurslarda samarali tayyorlash mumkin emas. [3]

Masofaviy ta'limda o'quv jarayonining asosi - bu talabaning maqsadli va boshqariladigan intensiv mustaqil ishi, u o'zi uchun qulay joyda, individual jadval bo'yicha o'qishi mumkin hamda maxsus o'quv qo'llanmalari to'plamiga va kelishilgan aloqa imkoniyatiga ega bo’lishi, o'qituvchi bilan telefon, elektron pochta va oddiy pochta orqali bog’lanishi mumkin.

Masofadan o`qitishning yana bir afzallik tomoni unda o`qish muddatini o`quvchi o`zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o`qishni boshlaydi, materiallarni o`qituvchi nazoratida o`zlashtiradi. O`zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O`quvchi berilgan programmani qanchalik tez o`zlashtirsa, shunchalik tez o`qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Programmani o`zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o`qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi. [4].

Shuni ta'kidlash kerakki, masofaviy ta'lim muhitida samarali hamkorlikni tashkil etish uchun virtual jamoaning har qanday a'zosi quyidagilarni bilishi kerak:

- AKT vositalaridan foydalanish;
- virtual muhitda muloqot qilish;
- axborotni topish va qayta ishlash;
- jamoada samarali munosabatlarni o'rnatish, bu vizual aloqa bo'lmaganda ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi;
- faqat og'zaki vositalardan foydalangan holda jamoaga qo'shiling, o'zingizni tanishtiring va eng yaxshi fazilatlaringizni namoyish eting;
- boshqa jamoa a'zolariga qiziqish ko‘rsatish;
- boshqa jamoa a'zolarining ish uslubini tezda bilib oling va shunga mos ravishda o'zingiznikini sozlang;
- yuzaga kelgan kelishmovchiliklar va ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish;
- muammolarni hal qilishda samarali ishtirok eting.

Shunday qilib, o'qituvchilar, psixologlar nogiron bolalarni masofaviy ta'lim bilan o'quv jarayonida kuzatib borishda doimiy ravishda quyidagi muammolarni hal qilishlari kerak:

- vizual aloqa bo'lmaganda o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida shaxslararo aloqalarni o'rnatishdagi qiyinchiliklar;
- Internetda amaldagi telekommunikatsiya odob-axloq normalari va qoidalariga rioya qilish;
- Uzoq davom etgan dialog sharoitida o'z fikrlarini ifodalash bilan bog'liq qiyinchiliklar va uni tashkil etishning cheklangan vositalari

Agar nogiron bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning maqsad va vazifalariga erishish uchun ushbu qoidalarga rioya qilingan taqdirdagina, har bir bola uchun ijobiy natija, individual bo'ladi [2].

Xulosa

Imkoniyati cheklangan bolalaruchun masofaviy ta’limni tashkil etish qulay hamda samaralidir. Bilim olish xohishida bo’lgan nogironligi mavjud bolalar uchun ham ko’plab imkoniyatlar mavjud. Shu jumladan masofaviy ta’lim ham bunday o’quvchilar uchun ko’plab qulayliklar keltiradi. Ayniqsa harakatlanish imkoniyati cheklangan bolalar uchun juda qulay, ya’ni bola bilim olishi uchun vaqt va makon muammosi bo’lmaydi.

Tarmoq axborot texnologiyalari ta’lim sohasida yangi istiqbollarni ochadi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish nafaqat davr talabi, balki hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Bu esa ta’limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Masofaviy ta’lim XXI asr ta’lim tizimi deb aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zaguzina N. N. Burmakina N. V. «Primenenie distansionnix texnologiy v obuchenii detey s ogranichennimi vozmojnostyami zdorov'ya» Uchebnometodicheskoe posobie BBK 74.50-279 Kemerovo, 2013. – 159 s.

MASOFAVIY TALIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLI ASOSLARI

Kodirov Akbar Shuxratovich
Shahrisabz Davlat Pedagogika institutining AKT o'qituvchisi, Shahrisabz, O'zbekiston
Nomozova Muborak To'lqin qizi
Shahrisabz Davlat Pedagogika institutining 2-bosqich talabasi, Shahrisabz, O'zbekiston

ANNOTATSIYA: Hozirgi vaqtda turli xil o'qitish usullari va zamonaviy ta'lim texnologiyalari kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan. Ta'li olishda axborot texnologiyalari orqali masofaviy ta'lim tizimidan keng qamrovli foydalanish (yosh, joy va maxsus sharoit talab etmasdan) yo'lga qo'yiladi. Ta'li oluvchilar o'rtasida axborot almashinuvining yangi texnik vositalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ta'lim jarayoni talabaning asosiy mashg'ulotini to'xtatmasdan va yashash joyini o'zgartirmagan holda ta'lim olishi uchun shart-sharoit yaratdi. Bugungi kunda "elektron ta'lim" atamasi "masofaviy ta'lim" atamasi bilan birga qo'llaniladi. Bu degani kengroq tushuncha turli shakllar va AKTga asoslangan ta'lim usullari.

KALIT SO'ZLAR: elektron ta'lim, masofaviy ta'lim, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiya, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, on-line va off-line, vizual tasvir, elektron qo'llanmalar, nogironlar.

Masofaviy ta'lim texnologiyasi (ta'lim jarayoni) bo'yicha hozirgi bosqich zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash asosida o'quv jarayonini masofadan turib olib borishni ta'minlovchi ta'lim bo'lib tartib-qoidalarini o'qitish, boshqarish usullari va vositalari majmuidir. Ta'limning barcha shakllarida masofaviy ta'lim texnologiyasining elementlarini to'liq miqyosda joriy etishga tayyorligini belgilovchi muhim elementlar sifatida quyidagilar tan olinishi kerak:

- Keng polosali Internetga ulangan mahalliy tarmoq;
- Elektron hujjat aylanishi tizimlari;
- O'quv qo'llanmalari, test tizimlari, avtorizatsiya va statistik ma'lumotlarga ega elektron o'quv-uslubiy majmualar tizimlari;
- Barcha o'quv fanlari bo'yicha oraliq va yakuniy test tizimlari, test bazalari va amaliy topshiriqlari;
- Elektron simulyatorlar kasbiy faoliyat mutaxassis va virtual laboratoriya ishi;
- Ta'lim jarayonining barcha sub'ektlarining virtual interaktiv o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan tizim. [2]

Masofaviy ta'lim tizimining muhim qismi bu mustaqil ta'limdir. An'anaviy mashg'ulotlar quyidagicha amalga oshiriladi: tinglovchi ma'ruzaga keladi, nazariy material oladi, keyin seminarlarda ma'lum amaliy ko'nikmalarni ishlab chiqadi. Masofaviy ta'lim darslik mavzularini mustaqil o'rganish, bajarishdan iborat test topshiriqlari va suhbat yoki videokonferentsiya orqali o'qituvchi bilan maslahatlashish. Bunday trening bilan o'qituvchi va talabalar o'rtasida bevosita, yuzma-yuz aloqa bo'lmaydi.

Masofaviy ta'lim o'z xususiyatlariga ko'ra an'anaviydan shunchalik farq qiladiki, masofaviy ta'lim kurslarini muvaffaqiyatli yaratish va ulardan foydalanish ta'lim maqsadlarini, yangi texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini, ta'lim ma'lumotlarini uzatishni, masofaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan

talablarni chuqur tahlil qilishdan boshlanishi kerak. Masofaviy ta'lim texnologiyalari axborot uzatishning quyidagi usullariga asoslanadi:

1. Elektron darsliklar va ma'lumotnomalar; ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va saqlaydi;
2. Internet – har qanday shakldagi ma'lumotlarni (matn, grafik, video, foto, ovoz), seminarlar, munozaralar shaklida ikki tomonlama aloqani uzatadi;

Masofaviy ta'limni amalga oshirish uchun real vaqt rejimida masofaviy aloqa zarur. Bunday aloqani ta'minlash uchun quyidagi vositalar va qurilmalarni o'z ichiga olgan texnik yordam qo'llaniladi:

Masofaviy ta’limda raqamli texnologiyalar tizimi samarali foydalanish maqsadida axborot uzatish tarmog'i (Internet)ning roli katta. Ushbu tarmoq orqali masofaviy ta’limda o'qituvchi va talaba yuzlarining tasvirlarini, taqdim etilgan video ma'lumotlarni (matnlar, jadvallar, rasmlar) va og'zaki ma'lumotlarni uzatishda raqamli texnik vositalar va tarmoqlardan keng foydalaniladi. Real vaqtda (on-line va off-line) ma'lumotni qabul qilish va jo'natish uchun raqamli qurilmalar bilan ishlash imkoni tobora ortadi. Bunday qurilmalar kompyuterlar, planshetlar, mobil telefonlardir va x.k. Texkik vosita orqali o'qituvchi va talaba(lar) o'rtasida vizual tasvir va ovozli aloqani ta'minlashi bu ta’lim oluvchida bilim olishga qiziqishini so’ndirmaydi. Talim oluvchilar bajarilgan ishlarni (uy topshiriqlarini) texnik vositalar xotirasida yoki bulutli texnologiyalar xotirasida saqlashlari mumkin. Bu ta’lim oluvchiga qulaylik tug’diradi.

Axborotni uzatishning zamonaviy vositalarining ishlashi elektr uzatish moslamalari va aloqa vositalarining mavjudligiga bog'liq. Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalarini uch guruhga bo‘lish mumkin:

- Ta'lim ma'lumotlarini taqdim etish texnologiyalari;
- Ta'lim ma'lumotlarini uzatish texnologiyalari;
- O'quv ma'lumotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyalari.

Ular birgalikda masofaviy ta'lim texnologiyalarini shakllantiradilar. Bundan tashqari, amalga oshirishda ta'lim dasturlari mohiyatan o'quv jarayonini ta'minlovchi va uni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim axborotini uzatish texnologiyalari alohida ahamiyatga ega. Masofaviy ta'limda foydalanish uchun eng mos bo'lgan ta'lim texnologiyalari quyidagilardan iborat:

- Video ma'ruzalar;
- Multimedia ma'ruzalari va laboratoriya mashg'ulotlari;
- Elektron multimedia darsliklari;
- Kompyuter o'qitish va test tizimlari;
- Simulyatsiya modellari va kompyuter simulyatorlari;
- Telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda maslahatlar va testlar;
- Video konferentsiya. [3]

Masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ochiq ta'limning dolzarbligi haqida gapirganda, u yoki bu sabablarga ko'ra klassik model bo'yicha ta'lim ololmaydigan alohida ijtimoiy guruhlarga e'tibor qaratish mumkin emas. Nogironlar kabi masofaviy ta'lim xizmatlariga juda muhtoj bo'lgan ijtimoiy toifani alohida ta'kidlash kerak. Zamonaviy jamiyatda nogironlarning ta’lim tizimidan samarali foydalanishlari muammosi juda dolzarbdir. Afsuski, bugungi kunda ba’zi nogiron kishi o'z qobiliyatlarini to'liq amalga oshira olmayapdi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari nogironlarga faqat umumiy va o'rta kasb-hunar ta'limi olish imkonini beradi, klassik shakldagi oliy ta'lim ko'pchilik uchun yopiq, chunki universitetlar nogironlar, harakatchanligi cheklangan va sog'lig'i muammoli odamlar bilan ishlashga moslashtirilmagan. Masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, yuqorida qayd etilgan markazlarda bo'lgani kabi, ixtisoslashtirilgan negizida yaratilgan ta'lim muassasalari va uyda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bu yerda masofaviy

ta'lim tizimi nafaqat sof ta'lim, balki juda muhim, shuningdek, nogironlarga o'zini jamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida ro'yobga chiqarish imkonini beradigan moslashuvchan rol o'ynaydi. Bundan tashqari, nogironlar uchun masofaviy ta'lim dasturlari, elektron qo'llanmalarni ishlab chiqish va ulardan olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan bir qatorda, ularni keyinchalik ish bilan ta'minlash uchun shart-sharoitlarni yaratish kerak. Buning uchun nogironlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va moslashtirish tizimi ko'p ishlaydigan mamlakatlarning tajribalariga o'rganishimiz va ularni o'zimizda qo'llashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Okolesov O.P. Masofaviy o'qitish uchun elektron kursni yaratishga tizimli yondashuv // Pedagogika. -1999 yil. -Yo'q 6. -C. 50-56.

[2] Polat E.S.Petrov A.E. Masofaviy ta'lim: bu nima bo'lishi kerak? // Pedagogika. - 1999. -№7. -BILAN. 29-34.

[3] Pidkasisty P.I. Tyschenko O.B. Masofaviy ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalari // Pedagogika. -2000. -№5. -BILAN. 7-12.

MASOFAVIY TA'LIMNING ELEKTRON-MODULLI DIDAKTIK TA'MINOTI

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich
O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiot instituti
Tillarni intensiv o'qitish texnologiyalari bo'limi boshlig'i,
Pedagogika fanlari doktori, professor
shmardonov@mail.ru

Jabborova Onaxon Mannapovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
o.jabborova@mail.ru

Annotatsiya: maqolada raqamli texnologiya asoslaridan biri masofaviy ta'limning elektron-modulli didaktik ta'minoti asoslari to'g'risida fikr yuritilgan va metodik tavsiyalar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogika, masofaviy ta'lim, elektron-modul, didaktika, ta'minot, tajriba.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimini takomillashtirish, uning sifat ko'rsatkichlariga erishish va ta'lim berish asoslarini yangilash vazifalari qo'yilgan [1]. Bu jarayonda ta'limning turli shakllarini joriy etish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan masofaviy ta'limning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish metodikasi bo'yicha tushunchalarga ega bo'lish zaruriyat hisoblanadi. Bu o'rinda ana shu masalaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Masofaviy ta'lim xususiyatlari. Mamlakatimiz ta'lim tizimida 2020 yildan boshlab COVID-19 pandemiyasi ta'siri sababli ta'limning masofaviy shaklidan foydalanish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu borada dastlabki tajribalar yuzaga kelganligini ta'kidlab o'tish lozim. Ayni paytda, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni masofaviy ta'lim texnologiyasining asoslari bilan tanishtirish dolzarb bo'lib turibdi. Shu jihatdan masofaviy ta'limning quyidagi xususiyatlariga e'tibor bering:

1) masofaviy ta’lim ommaviy ravishda kompyuter, yer sun’iy yo‘ldoshi, televideniya, radio kabi axborot kommunikatsion texnik vositalar asosida amalga oshiriladi;

2) masofaviy ta’lim bilim olish va layoqatni rivojlantirishda ijobiy yondashuvni ta’minlaydi;

3) masofaviy ta’limda ta’lim oluvchiga keng ko‘lamli yo‘nalish berish imkoniyati bor;

4) mamlakatning eng chekka hududlarida istiqomat qiluvchi ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari mavjud;

5) masofaviy ta’limda ta’lim beruvchi tashkil etuvchi, ta’lim oluvchi esa mustaqil o‘zlashtiruvchi vazifalarini bajaradi.

Shu sababli dunyo mamlakatlarida masofaviy ta’lim texnologiyasiga asosiy e’tibor qaratilmoqda [2]. Ko‘pchilik pedagoglar masofaviy ta’limda o‘zlashtirish jarayonini kuzatish imkoniyati cheklangan, deb hisoblaydi. Aslida o‘zlashtirish jarayonini tekshirish uchun tegishli topshiriqlar, vazifalar va ko‘rsatmalar kompyuterli dasturdagi masofaviy ta’lim o‘quv materiallarida aks etishi kerak. Asosiy e’tibor ta’lim oluvchining kerakli mavzular bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lishiga qaratiladi. Shu jihatdan pedagogik masofaviy ta’limda asosiy masala ta’lim nazariyasi, tarbiya metodi va o‘qitish texnologiyalarini o‘zlashtirish hisoblanadi. Aynan mana shu masalalarga e’tibor berish masofaviy ta’limning mazmuknini to‘g‘ri tushunish imkonini beradi.

Masofaviy ta’limning elektron-modulli ta’minoti tuzilmasi. Bugungi kunda kompyuter ta’lim dasturiga asoslangan elektron-modulli ta’minotni yaratish muhim hisoblanadi. Chunki umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika fani vositasida kompyuter texnologiyasiga asoslangan o‘qitish jarayonlari bo‘yicha ko‘nikmalar berilmoqda. Shu jihatdan masofaviy ta’lim elektron-modulining tuzilishi quyidagilarga asoslanadi:

1) muayyan mavzu bo‘yicha o‘quv materiallarining elektron nushasini tayyorlash va ularda asosiy e’tiborni eng muhim ma’lumotlarni ifodalashga qaratish;

2) o‘quv materiallarini o‘zlashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar, topshiriqlar va vazifalarni ifodalash;

3) o‘zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi topshiriqlar, vazifalar va tavsiyalarni aks ettirish.

Ana shu uch komponentdan iborat tuzilma asosida elektron-modulli o‘quv materiallari tayyorlanadi va kompyuterning maxsus dasturida joylashtiriladi. Mazkur o‘quv materiallarini o‘zlashtirish muddati, topshiriqlarni bajarish vaqti va uni baholash mezonlari alohida ko‘rsatiladi. Buning natijasida ta’lim oluvchi istalgan vaqtda mavzuni o‘zlashtirish, topshiriqlarni bajarish va baholash nazoratidan o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Masofaviy ta’limning muhim jihati shundaki, asosiy e’tibor amaliy o‘zlashtirish jarayoniga qaratiladi. Shuningdek, shahar hududlarida istiqomat qilayotgan mohir pedagoglarning individual tajribalarini ommalashtirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini beradi. Ayni paytda, masofaviy ta’limda o‘qitish jarayoni ustuvor bo‘lishini ta’kidlab o‘tish lozim. Shu sababli masofaviy ta’limning o‘qitish jarayonida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchining tarbiya ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi [3]. Buning uchun ta’lim beruvchi turli savollar yoki suhbatlar vositasida ta’lim oluvchining tarbiya ko‘nikmalarini tarkib toptirishga e’tibor berishi kutilgan samarani beradi.

Elektron-didaktik ta’minotni tayyorlashda quyidagi ta’moyillarga asoslanish shart:

1) ilmiylik;

2) tushunarlilik;

3) ko‘rgazmalilik;

4) tizimlilik;

5) ketma-ketlilik;

6) variativlik.

Misol uchun, varitivlik tamoyili asosida o‘quv materiallarining bir necha variantlarini taqdim etish mumkin. Bu bilan ta’lim oluvchiga o‘quv materiallarini tanlash huquqi beriladi.

Elektron-o‘quv modulining turlari. Kompyuyetli dastur asosida tayyorlanadigan elektron-o‘quv moduli bir necha turlarda tayyorlanishi mumkin. Ayni paytda, bugungi kunda quyidagi uch tur keng amalda ekanligini eslatib o‘tish joiz:

1) informatsion shakldagi nazariy elektron o‘quv moduli;

2) amaliy shakldagi elektron o‘quv moduli;

3) nazorat shaklidagi elektron o‘quv moduli.

Nazariy shaklidagi elektron o‘quv modulida muayyan fanning barcha masalalari qamrab olinadi va kompyuter dasturi imkoniyatlariga asosan o‘quv materiallari keng ko‘lamda tayyorlanadi.

Amaliy shakldagi elektron o‘quv modulida o‘zlashtirilgan materiallarni topshiriqlar vositasida mustahkamlash materiallari aks etadi. Buning uchun ta’lim beruvchi turli variantdagi topshiriqlarni ta’lim oluvchiga taqdim etishi kerak bo‘ladi.

Nazorat shaklidagi elektron o‘quv modulida murakkab savollar majmuasi o‘z aksini topadi. Ular vositasida o‘zlashtirish jarayoni chuqurlashtiriladi va ta’lim oluvchini faollashtiriladi.

E’tibor berilsa, masofaviy ta’limning elektron-modulli didaktik ta’minoti muhim xususiyatlar va imkoniyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim muassasalarida quyidagilarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) majburiy pedagogik o‘quv fanlarida masofaviy ta’lim bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor berish;

2) “Masofaviy ta’limning elektron-modulli ta’minoti” maxsus kursini tashkil qilish;

3) “Talabalar Akademiyasi” tuzilmasi mashg‘ulotlarida masofaviy ta’limning elektron-modulli ta’minotini yaratish bo‘yicha talabalarni yo‘naltirish.

Bunday yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarni masofaviy ta’lim asoslari va uning elektron-modulli ta’minoti bo‘yicha ko‘nikmasini kutilgan darajada tarkib toptirish imkonini beradi.

Shunday qilib oliy pedagogik ta’lim jarayonida masofaviy ta’limning elektron-modulli ta’minoti asoslarini chuqur o‘zlashtirish taqozo etiladi. Chunki kelgusida masofaviy ta’limdan keng foydalanish ehtimoli mavjud.

Adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // www.ziyonet.uz

2. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Chirchiq, 2021

3. Jabborova O., Saparbayeva D. Boshlang‘ich ta’limda mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi. – Chirchiq, 2023

MASOFAVIY TA’LIMNING ISTIQBOLLI TEXNOLOGIYALARI

Radjabov Baxtiyor Sharipovich[1]

Mirjamolova Moxira Abdug’affor qizi[2]

1.“MO’M va geometriyasi professori

2.Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotasiya: Maqolada davlat o'qituvchilari uchun masofaviy ta'lim masalalari, usullari, ahamiyati,masofaviy ta'lim tizimini tashkil etish muammolari, masofaviy ta'lim modellari va ularning

turlari. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari ta'kidlangan va fikr-mulohazalar bildirilgan davlat uchun masofaviy ta'limda videodarslar va multimedia dasturlarini qo'llashning samarali usullari haqida berilgan.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, Tarmoqdan ayrilish, onlayn bilim, multimedia dasturlarini

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o‘zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o‘zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo‘lmoqda. Har bir kunimiz kuchli yangilik oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni har joyda, uyda, ishxona va hattoki ta’tilda ham ta’qib etadi. Inson axborot ta’siridan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o‘rganish axborotlarni yig‘ish va o‘zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma’lum davr ichida shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan axborotlarning ko‘p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish ta’limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi, desak mubolag’a bo‘lmaydi. Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ta’lim tizimida masofadan o‘qitish uslubi shakllari qo‘llanilmoqda. Masofaviy ta’lim uslubi bu sirtqi o‘qishning yangi shakli va mustaqil o‘qishdir. Bu insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofadan turib yoki odatdagidek sinfxonalarida ta’lim olish - bu ko‘plab abituriyentlarni qiynayotgan savol. Ko‘pincha o‘quvchilar masofaviy ta’lim olishni tanlashdan qo‘rqishadi, chunki ular ushbu ta’lim usulining ijobiy va salbiy tomonlariga aniqlik kiritmaydilar. Agar siz shu tartibda bilim olishni xohlasangiz, masofaviy bilim olishning afzalliklari va kamchiliklarini tushunib olishingiz lozim.

Masofaviy ta’lim olishning afzalliklari va kamchiliklari: Siz o‘qish bilan bir qatorda ish bilan ham shug’ullanishingiz mumkin. Aslida masofaviy o‘qishni tanlagan abiturentlarning asosiy qismi bu o‘z ishidan voz kechishni istamaydigan, ammo bilim olishni xohlaydiganlardir. Onlayn ta’limda siz dam olish kunlarida, ishdan qaytganingizda hatto yarim kechada o‘qishingiz mumkin;

Mablag‘ingiz tejaladi. Har qanday dastur uchun masofaviy ta’lim darajasi o‘quv markazlaridagi oddiy to‘lovdan ko‘ra ancha arzonroq bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan maqbul variantlarni qidirayotgan o‘quvchilar uchun onlayn ta’lim eng to‘g’ri yo‘l;

Vaqtingizni tejang! O‘quv markazlariga borish va qaytish vaqtida transport kutish uchun ketadigan vaqtingizni tejashingiz mumkin. Onlayn ta’limda siz istagan hududda ma’lumot olasiz;

Agar talaba o‘zini intiluvchan hisoblasa, masofaviy ta’limning eng katta foydasi shundaki, ayrim darslar guruh bo‘lib o‘tiladi. Guruhda ba’zi o‘quvchilar tezroq, ayrimlari esa sekin tushunadilar. Bu jihatdan masofaviy ta’lim olish usuli samaraliroq;

Kamchiliklari: Chalg‘ish ehtimoli yuqori. Yuzma-yuz muloqot qilish uchun o‘qituvchilar va kutilayotgan topshiriqlar haqida doimiy ravishda eslatuvchi kursdoshlar yo‘q. Agar talaba masofaviy o‘qitish kursini muvaffaqiyatli yakunlamoqchi bo‘lsa, o‘zini g’ayratli va diqqatli qilishi kerak;

Tarmoqdan ayrilish. Onlayn bilim olishning eng katta dushmani bu internet provayderlarining sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu vaziyatda talabaning ta’lim olishga bo‘lgan intilishi so‘nishi yoki asabiylashishiga olib keladi.

Siz qay bir yo‘sinda ta’lim olishingizdan qatiy nazar, bularning bari siz mukammal bilim olishingingizga ko‘maklashadi.[1]

